

KO'PRIKSIMON PROTEZLAR BILAN PROTEZLASHDA UCHRAYDIGAN XATO VA ASORATLAR VA ULARNING OLDINI OLISH

Axmedov Alisher Astanovich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Ortopedik stomatologiya kafedراسi mudiri, DSc., dotsent

Alamov Jahongir Azamat o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Ortopedik stomatologiya kafedراسi klinik ordinatori

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qisman adentiyada ko'priksimon protezlarni bemorlarga to'g'ri qo'yish qoidalari talqin etilgan.*

***Kalit so'zlar:** antagonist, jag', ortoped, okklyuziya, oral, qoplama ko'priksimon, mushak, chaynash, to'qima, tish, protez.*

***Аннотация.** В статье изложены правила правильной установки мостовидных зубных протезов у пациентов с частичной адентией с учетом их возможностей.*

***Ключевые слова:** антагонист, челюсть, ортопедический, окклюзия, оральный, мостовидный, мышца, жевание, ткань, зуб, протез.*

***Annotation.** This article, based on its capabilities, interprets the rules for the correct placement of bridge-like prostheses in patients with partial edentia.*

***Key words:** antagonist, jaw, orthopedic, occlusion, oral, covering bridge-like, muscle, chewing, tissue, tooth, prosthesis.*

KIRISH

Ortopedik stomatologiya klinikasida tish qatorlarining qisman nuqsonlarini davolash uchun eng keng tarqalgan konstruktsiyalar ko'priksimon protezlar hisoblanadi. Ko'priksimon protezlari, protezlarning olinmaydigan turi bo'lib, bu protezlarning olib qo'yiladigan protezlarga nisbatan har jihatdan afzaldir. Dizayn xususiyatlariga ko'ra, kichik o'lchamdagi va og'iz bo'shlig'ining shilliq qavati bilan deyarli aloqa qilmaydigan ko'priksimon protezlari (tish milkidan tashqari) bemorlar tomonidan osongina qabul qilinadi va ularga moslashish tez va hech qanday asoratlarsiz amalga oshiriladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ko'priksimon protezlar yaxshi funktsional xususiyatlarga ega. Zamonaviy materiallar va texnologiyalar yordamida yuqori estetik ko'rsatkichlarga ega bo'lgan ko'priksimon protezlarni yaratishga imkon beradi. Ammo ko'priksimon protezlarni tayyorlashda klinik-laborator bosqichlarni bajarish qoidalariga rioya qilinmasa, tishlarning qisman nuqsonlarini davolashda bir qator asoratlarga olib kelishi mumkin. Ko'priksimon protezlar bilan protezlashda quyidagi xato va asoratlari bor:

1. Klinik bosqichlarida yo'l qo'yilgan xatolar:

a) Tayanch tishlarni noto'g'ri tanlash va ularni noadekvat baholash,

b) Tayanch tishlarni noto'g'ri preparovka qilish, kam charxlash, haddan tashqari ko'p charxlanishi, qoliplarni olishda xatolar, markaziy okklyuziyani aniqlashda

xatolar, qoplama rangini noto'g'ri aniqlash, ko'priksimon konstruksiyani moslash va sementlashda xatolar.

2. Laborator bosqichlarida qo'yiladigan xatolarga: Qoplamalarni ezib (shtampovka) tayyorlashda xatolar, oraliq qismini modellashtirishda xatolar, ko'priksimon protez qismlarini kavsharlashda xatolar, quyma KP karkaslarini modellashtirishda xatolar, quyish jarayonida xatolar, qoplovchi qatlam tayyorlashda xatolar, KPlarni tayyorlashda klinik bosqichlarida xatolar va asoratlar hisoblanadi.

Eng keng tarqalgan xato - bu bemorni noto'g'ri tekshirish (yoki yetarlicha tekshirmaslik). Bu quyidagi asoratlarga olib kelishi mumkin: Tayanch tishlarni noto'g'ri tanlanishi tufayli ushbu tishlar (yoki ularning antagonistlarining) parodont to'qimasining funktsional-travmatik zo'riqishiga sabab bo'ladi.

ChPJB (chakka pastki jag' bo'g'imi) funktsiyasining buzilishi. Tayanch tishlarni noto'g'ri tanlash bilan bog'liq asoratlar. Bu tayanch tishlarning ham ularning antagonistlarining ham yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Tayanch tishlarni tanlashdan oldin, har qanday restavratsiya doimiy okklyuzion bosimga chidamli bo'lishi kerakligini aniq tushunish kerak. Chunki ilgari yo'qolgan tishlarga ta'sir qilgan kuchlar oraliq qism orqali tayanch tishlarga uzatiladi. Shunday qilib, fiziologik yukdan tashqari, tayanch tishlar yetishmayotgan tishlarning funktsiyasini bajaradi. Haddan tashqari ko'p charxlash pulpa kamerasini ochish xavfini keltirib chiqarishi mumkin. Pulpa kamerasi ochilib qolgan tishlarni endodontik davolamasdan tayanch vosita sifatida ishlatish mumkin emas. Aks holda, kelajakda bu tayanch tish va protez konstruksiyasiga zarar yetkazishi mumkin.

Tayanch sifatida tanlash rejalashtirilgan tishlarning parodont to'qimasi sog'lom bo'lishi kerak. Tayanch tishlarda qimirlash bo'lmasligi kerak. Tayanch sifatida tanlangan tishlar va uning parodont to'qimasi holatini baholashda uchta omil hisobga olinadi:

1. Tish toj balandligi va ildizi uzunligining nisbati.
2. Tish ildizining konfiguratsiyasi.
3. Periodont birikkan ildiz yuzasining maydoni.

A. Chuqur preparovka vaqtida muayyan shartlarni bajarmaslik bilan bog'liq asoratlar: Suv bilan sovutish, Uzib avaylab charxlash, Tishning anatomik tuzilishini hisobga olish kerak bo'ladi.

Agar ushbu shartlar bajarilmasa, tish pulpasining termik kuyishi va shikastlanishi natijasida pulpit, periodontit rivojlanishi mumkin. Tishlarni charxlash vaqtida parodont to'qimasi va tishning aylana boylami shikastlanishi mumkin. Ushbu xatolarni bartaraf etish uchun tayanch tishlarni milk darajasigacha charxlash kerak

bo'radi. Haddan tashqari ko'p charxlash qoniqarsiz fiksatsiyaga (sementdan ko'chishi) sabab bo'lishi mumkin.

B. Qolip olishda xatolar:

Silikon massasining ikkinchi qavati bilan qolip olayotganda milk cho'ntagini quritish kerak, chunki u yerda milk suyuqligi to'planadi. Shu sababli qolip sifatsiz chiqadi. Bundan tashqari, ushbu bosqichda qolip oluvchi qoshiqni siljishi mumkin. Shuningdek, qolip oluvchi qoshig'ini og'iz bo'shlig'idan noto'g'ri harakat sababli qolipning deformatsiyalar kuzatiladi.

Qolip olishda yana bir nechta xatolar mavjud: Qolip massasi asosiy va katalizator qismining nisbatlariga rioya qilmaslik, faqat bitta jag'dan qolip olish, alginat massa bilan qolip olish, uni texnikka kech berilganda (alginat massa qisqaradi).

Markaziy okklyuziyani aniqlashda qo'pol xatolar ko'priksimon protez okklyuzion yuzasining noto'g'ri takrorlanishiga olib kelishi mumkin va natijada chaynov mushaklari va CHPJBning disfunktsiyasi hamda konstruktsiyaning qoplovchi qatlamining ko'chib tushishiga olib kelishi mumkin. Bunday asoratlarning oldini olish uchun protezlash jarayonida yuz yoyi va artikulyatordan foydalanish tavsiya etiladi (protezning okklyuzion yuzasini modellashtirishga va artikulyatorda pastki jag'ning individual harakatlarini bajarib, uni korrektsiya qilish imkonini beradi). Shu tarzda tayyorlangan qoplamalar va ko'priksimon tish qatoriga qo'yib ko'rilganda protezlarning okklyuzion yuzalarini korrektsiya qilishga hojat qolmaydi. Bu o'z navbatida protezning funksional va estetik xususiyatlarini oshiradi.

C. Qoplama rangini aniqlashda xatolar:

Devorlar, shiftlar, pollar va pardalarning rangi tishlarning rangini aniqlashga ta'sir qiladi. Yorug'likning yutilishi va aks etishi sezilarli rang og'ishlariga olib keladi. Neytral kulrang devor rangining kunduzgi yorug'lik bilan kombinatsiyasi ideal hisoblanadi.

D. Ko'priksimon protezlarni sement bilan doimiy fiksatsiyalash bosqichida xatolar va asoratlar:

Tayanch tishlarni yomon quritish va yog'sizlantirish, sementni noto'g'ri qorish (quyuq konsistentsiya), bir vaqtning o'zida bir nechta ko'priksimon protez va qoplamalarni sementlash. Tayanch tishlarni yetarlicha yaxshi quritmasdan KPni juda suyuq qorilgan sementga o'tqazish, konstruktsiyani sementdan ko'chishiga olib kelishi mumkin. Juda quyuq qorilgan sement bilan esa protezni "o'tqizolmasligingiz" mumkin, bu esa prikusni ko'tarib qo'yishiga olib keladi.

2.Laborator bosqichlarida yo'l qo'yilgan xatolar:

A. Qoplamalarni ezib tayyorlashda xatolar:

Ezib tayyorlanadigan qoplamalarni yasashda noaniqliklar juda keng tarqalgan. Ezib tayyorlash usuli bilan qoplama shaklini (tish tojini) aniq qaytara olish deyarli mumkin emas. Modelda tish bo'yin qismining aniq izi bo'lmaydi. Tish texnigi uni ustunni kesishda tahminan belgilaydi. Natijada, qoplamalar keng yoki tor chiqishi mumkin. Bunday kamchilikni milknii aylana boylami sohasida oldindan retraktsiya qilib, ikki qavatli nusxa olish yo'li bilan bartaraf qilish mumkin.

B. KP oraliq qismini modellashtirishdagi xatolar:

Asosiy xato shundaki, jag'ning u yoki bu qismida ko'priksimon protez oraliq qismining shakli noto'g'ri aniqlanadi. Shuningdek, oraliq qismining kengligini noto'g'ri aniqlash mumkin. Oraliq qismning keng yasalishi tayanch tishlar parodontining ortiqcha zo'riqishiga sabab bo'ladi, agar bu qism tabiiy tishlardan kengroq bo'lsa, u holda oraliq qism sohasi gigiyenasi qiyinlashadi. Oraliq qism juda ingichka qilib yasalsa - protezni sinishiga olib kelishi mumkin.

C. Protezni kavsharlashda xatolar:

Kavsharlashda asosiy xato qoplamalarning siljishidir. Bu ko'priksimon protez qismlarini yopishqoq mum bilan yopishtirilganda sodir bo'lishi mumkin. Kavsharlash jarayonida qoplamalarning deformatsiyasi, gipslash qoidalariga rioya qilmaslik (agar qoplamalar gips bilan to'ldirilmasa) sabab bo'ladi. Protez oraliq qismining qoplamalar bilan birikish sifati kavsharlash ashyosi, kavsharlash sifatiga, shuningdek, qoplamaning sun'iy tishlar bilan tutashish maydoniga bog'liq bo'ladi.

Ezib kavsharlangan ko'priksimon protezlarni tayyorlashda bir necha turdagi metallar (qoplamalari zanglamaydigan po'latdan, oraliq qismi kobalt xrom qotishmasidan, kavshari kumush, marganets, mis, rux, nikel, kadmiy, magniy) ishlatiladi. Bu og'iz bo'shlig'ida galvanik toklarning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin (galvanizm). 10 mV (millivolt) gacha bo'lgan potensial shartli me'yor hisoblanadi. Agar achishish, og'riq, og'izda harorat, metall ta'mi paydo bo'lsa, og'riqlar chidab bo'lmas, azobli va doimiy bo'lib qolsa, bunday simptomokompleks galvanoz deb ataladi. Bunday bemorlarda mikrotoklarning o'lchami 50 dan 150 mV gacha o'zgarib turadi. Kavsharsiz ko'priksimon protezlarning kavsharlanib tayyorlangan protezlarga nisbatan ba'zi afzalliklari bor, ularni tayyorlash usullari deformatsiyalanish ehtimolini istisno qilmaydi.

3. To'liq quyma ko'priksimon protez (KP) tayyorlashshda yo'l qo'yilgan xatolar:

To'liq quyma ko'priksimon protez karkasini modellashtirish va quyishda yo'l qo'yilgan xatolar moslashtirish bosqichida sodir bo'ladi.

A. Quyma KP karkaslarini modellashtirishda yo'l qo'yiladigan xatolar:

Kompensatsiyalovchi lokning ortiqcha miqdori tufayli keng qoplamalar yasalishi mumkin. Tor qoplamalar - kompensatsion lokning juda yupqa qatlamidan foydalanish yoki metall qotishmasining quyma kirishishini ta'minlaydigan boshqa materiallarsiz modellashtirish natijasida yuzaga keladi.

Ko'priksimon protezning oraliq qismini loyihalash paytida har bir holat uchun individual yondashish kerak. Chaynash sohasida oraliq qism to'liq egarsimon shaklda bo'lishi qarshi ko'rsatma hisoblanadi. Oral tomondan oraliq qismi sferik shaklda bo'lishi kerak. Chaynov tishlar sohasida oraliq qismi yuviladigan bo'lishi kerak.

B. Quyishda xatolar sababli:

1) Olovga chidamli massa shakllantirishdan oldin mumli kompozitsiyani yetarli yog'sizlantirish;

2) Har bir donaga individual diametri 2,5 mm bo'lishi kerak;

3) Mufel qizdirilganda haroratning juda tez ko'tarilishi shakllanayotgan massada yoriqlar paydo bo'lishiga olib keladi;

4) Mufelning yetarlicha qizimaganligi mahsulotda quyma nuqsonli chiqadi va bo'shliq hosil qiladi;

5) Metall qotishmasining yetarli darajada erimaganligi yoki o'ta qiziganligi, tarkibida yod qo'shimchalar mavjudligi;

6) Quyma sentrifugani aylanish momenti yetarli emasligi;

C. Qoplovchi qatlam tayyorlashdagi xatolar:

Quyma karkas noto'g'ri tayyorlangan bo'lsa, qoplovchi qatlamda yoriqlar hosil bo'lishi va qatlamni tushib qolish kabi holatlar yuzaga kelishi mumkin.

Bu turdagi asoratlarning sabablari bir nechta. Eng ko'p uchraydigan xatolar:

1) KP karkasini noto'g'ri modellashtirish;

2) katta uzunlikdagi oraliq qism;

3) oraliq qismi karkasining juda ingichka yasalishi;

4) konsol tipidagi oraliq qism;

5) karkasning metall yuzasiga noto'g'ri ishlov berish;

6) karkasning ifloslanishi;

7) gruntli qatlamni (maskirovka lokini) surtishdagi xatoliklar;

8) press-qolipni(пресс-форма) yaratishda yo'l qo'yiladigan xatolar;

9) plastmassa polimerizatsiya jarayonining buzilishi;

10) karkasni yuzasini silliq yasash (retentsion punktlar yetishmasligi);

11) okklyuzion yuzani noto'g'ri modellashtirish.

Klinikada ko'priksimon protezlarni moslashtirishda yo'l qo'yiladigan xatolar.

1) sun'iy yorug'lik ta'sirida rang tanlanishi tufayli protez rangining tabiiy tishlarga mos kelmasligi;

2) tish kam charxlanganligi yoki juda qalin karkas tayyorlanganligi tufayli qoplovchi qatlamning yupqa qoplanishi;

3) yuza qatlam ostidan metall karkas rangining ko'rinib qolishi;

4) protezning okklyuzion yuzasining mos kelmasligi (antagonist tishlarni hisobga olmasdan, artikulyatorsiz yoki modellarni noto'g'ri gipslash natijasida bo'lishi mumkin);

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ko'priksimon protezning noto'g'ri modellashtirilgan oraliq qismining alveolyar o'siqning shilliq qavatiga tegib turadigan joyda qon aylanishining buzilishiga va dekubital yaralarning hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin, bu alveolyar o'siq shilliq qavatining yallig'lanish-distrofik o'zgarishlariga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.Miryoqubov. Ortopedik stomatologiya propedivtikasi. Toshkent, 2004-yil, 138-143-bet.
2. N.G.Abolmasov. Ortopedik stomatologiya. Toshkent, 2000-yil, 159-161-bet.
3. Allaberganov, D., & Zubtiyev, S. (2023). Specific pathomorphology of liver tissue in neonatal sepsis. Talqin va tadqiqotlar, 1(7).
4. Axmedova, G., Zaripov, B., & Zubtiyev, S. (2024). Covid-19dan tiklanish davrida qondagi metabolizm ko'rsatkichlarining o'ziga xosligi.
5. A.I.Betelman. Ortopedik stomatologiya. Toshkent, 2001-yil, 68-70-bet.
6. E.I.Sherbakov. Ortopedik stomatologiya. Toshkent, 2008-yil, 74-76-bet.
7. X.A.Kalamkarov. Ortopedik stomatologiya. Toshkent, 2000-yil, 92-93-bet.